<i>Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalaring rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklari.....	1914
<i>X. N. Agaliyeva</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning hissiy-ma'naviy rivojlanishida didaktik o'yinlarning ahamiyati	1920
<i>Urinbayeva Barchinoy Zafarjanovna</i>	
Yoshlarni milliy musiqa san'ati va an'anaviy xonandalikka bo'lgan munosabatini tarbiyalash	1924
<i>Qurbonova Shoxisanam Axmadjonovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tabiiy fanlar mavzularini o'rganishdagi klaster yondashuvlari	1930
<i>Umarova Nafisa Ahmatillovna</i>	
11–15 yoshli suzuvchilarning mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish xususiyatlari	1934
<i>Hasanov Anvar Toxirovich, Asqarova Zaynura</i>	
Yosh voleybolchilarning jismoniy rivojlanishini o'rganish	1937
<i>Sultonov Baxtiyor Abdumurodovich, Hasanov Anvar Toxirovich</i>	



Школьные трудности в обучении и педагогическое диагностирование	1940
Урумбаева Айгуль Нагметовна	
Erkin kurashchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda funksional kuch mashqlarining samaradorligi.....	1943
Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li	
Употребление падежных окончаний на уроках русского языка	1947
Адилова Солияхон	
STEAM va raqamli ta'lim texnologiyalari asosida alfa avlod o'quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	1951
Boltayeva Go'zal Komilovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga qo'yiladigan didaktik talablar	1954
Mansurova Lobar Luqmon qizi	
Translation Techniques as an Integral Part of Foreign Language Teaching and Learning: Benefits and Potential Issues	1958
Yusupova Nargiza Abdulxafizovna	
Использование интерактивных методов обучения русскому языку в медицинском вузе.....	1963
Бекмуратова Умида Аманбаевна	
Nogironligi bo'lgan bolalarda adaptiv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sog'liqni saqlashdagi o'rni.....	1967
Namozova Nargiza Husniddin qizi	
The Importance of the Theoretical Basis in Educating Preschool Children in the Spirit of National Education Within the Family.....	1971
Rakhmonova Diyora Utkir's daughter	
Kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funksional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari.....	1976
Nurullayev Abduxoliq Qaxxorovich	
Voleybol mashg'ulotlarida funksional tayyorgarlikni oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari ...	1980
Davulov Ozodbek Qalandarovich	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarni kompleks tayyorlashning nazariy va uslubiy jihatlar.....	1984
Djemilov Temur Rasimovich	
Oilaviy nizolarning bolalar psixikasiga ta'siri.....	1989
Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna	
Boshlang'ich maktab yoshidagi (6–8 yosh) chap qo'li dominant bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishi va xususiyatlari	1993
Usmanova Sevara Akmalovna	
Matematika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar orqali darsni qiziqarli va samarali qilish usullari ...	1996
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich	
Entropiya o'lchovlarining nazariy asoslari: Shannon, Reyni va Tsallis entropiyasi taqqoslamasi.....	2001
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Abdurashidov Saydullo Xayrullo o'g'li	
Sun'iy intellekt vositalari asosida kiberijtimoiylashuv samaradorligini oshirishning pedagogik sharoitlari va monitoring mexanizmlari.....	2007
Istamova Dilnoza Norboyevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompetensiyaviy yondashuvga tayanib ta'lim mazmunini boshqarish	2012
Turaxujayeva Madina Norpulatovna	
Para armrestlingchi talabalarni musobaqa oldi texnik tayyorgarligini takomillashtirishda kuch sifatining o'rni	2015
Karimov Faxriddin Xurramovich	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	2019
Djabbarov Axror Islomovich	
Tinchlik madaniyati konsepsiyasining evolyusiyasi: klassik va zamonaviy falsafa	2023
Abdumalikov Ilimjon Abduxamjonovich	
Talabalarning muammoga asoslangan topshiriqlar orqali kognitiv mustaqilligini rivojlantirish: mohiyat va mazmun	2028
Abduvaliyev Nurillo Abdujalilovich	
Oliy ta'lim muassasasi pedagoglari innovatsion faoliyatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	2032
Almardanova Salomat Bobonazarovna	

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zarurati	2035
Ashirov Abdurashid Ravshanovich	
Pedagogik ta'lim klasteri tizimi asosida maktab laboratoriya innovatsion loyihasini amalga oshirishning o'ziga xosligi	2040
Azimova Odinaxon Abduqodir qizi	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	2043
Kayumova Nazokat Rashitovna	
Uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning metodik asoslari	2049
Kurbanov Baxrom	
Ingliz tilida o'qitish vositasi sifatida monologlardan foydalanishning muvaffaqiyatli strategiyalari	2053
Madaminova Nilufar Madrasulovna	
Raqamli texnologiyalar davrida o'quvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari	2056
Mahmudov Dilmurod Rahmatjonovich	
Gamifikatsiya va STEAM texnologiyalarini joriy etish orqali boshlang'ich ta'limda inklyuziya va teng imkoniyatlarni ta'minlash	2059
Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2064
Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich	
Maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari orqali jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish metodikasi.....	2067
Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich	
O'quv jarayonida "Data Science" elementlarini integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari	2072
Mo'minova Dilnavoz Komilovna	
Muloqot kompetensiyasining pedagogik-psixologik mazmuni va rivojlanish omillari.....	2077
Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna	
O'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning shakllanishida ota-onaning liderlik maqomining roli.....	2080
Odina Otajonova	
Yarimo'tkazgichlar fizikasi fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari	2084
Oromiddinov Sardorbek Botirovich	
Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanish metodlari	2089
Qobilov Vohidjon Asliddin o'g'li	
Inklyuziv ta'limda pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlar ...	2092
Qodirova Feruza Usmanovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinli texnologiyalardan unumli foydalanishning roli.....	2095
Sobirova Bonu Matkarimovna	
Kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishlarida oila tarbiyasining ahamiyati	2099
Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi, G'aniyeva Shodiya Azizovna	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2102
Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik tizimi	2105
Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish	2109
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi	
Lingvokulturologiya va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida talabalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish.....	2114
Y. T. Umarova	
Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda kasbiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar	2118
Yakubova Manzura Abduraxmonovna	
Integratsiyalashgan darslar orqali talabalarining kreativ salohiyatini rivojlantirish	2121
Yaxyayeva Umida Sharifovna	
Tibbiyot oliy ta'limida "O'zbekiston tarixi" fanining amaliy komponentini kuchaytirish: klinik-ijtimoiy kontekst orqali o'qitish modeli	2125
Yulchiyeva Gulnozaxon Shuxratbek qizi	
Radiatsion fonning inson hayot faoliyatiga ta'siri mavzusini o'rganishning pedagogik ahamiyati	2130
Sodiqov Murod Naimovich	



Talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi	2134
Tashpulatov Farxad Alisherovich	
“Arba’in” asarida qit’alarning vazniy xususiyatlari.....	2140
Eshniyazova Maysara Beknazarovna	
Guruhiy loyihalar orqali bolalarda hamkorlik va muloqot ko’nikmalarini tarbiyalash.....	2145
Negmatova Sanobar Qarshiboyevna	
Sport takomillashuv gurugidagi futbolchilarni o’yinga yo’naltirilgan mashg’ulotlar orqali musobaqaga tayyorgarlikni takomillashtirish	2149
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyevich	
Oliy ta’lim raqobatbardoshligining ta’lim sifatini oshirishdagi roli	2155
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
Sharq donoligi va zamonaviy ta’lim uyg’unligi	2162
Djurakulova Adolat Xolmuratovna	
The Role of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language	2165
Babayeva Komila Rishatovna	
Zaif eshituvchi bolalarga tasviriy san’atni o’rgatishning metodik asoslari (miniatyura misolida).....	2169
Buharbayev Muxtar Yusupovich	
Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining axloqiy va estetik madaniyatini takomillashtirish: maxsus yondashuvlar	2172
Do’schanova Nafosat Norimonovna	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari	2176
Fayzullayeva Feruza Raxmatovna	
Bo’lajak o’qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	2179
Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi	
Dialekt va adabiy til: o’zaro munosabat.....	2183
Jumanazarova Guljahon	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o’rgatishda interaktiv ta’lim texnologiyalar.....	2187
Kimsanboyeva Ruxsoraxon Ziyodbek qizi	
Pedagogik nizolarni hal etishda bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari	2190
Norjon Jamilova Abduxoliq qizi	
Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	2194
Shamsiyeva M. R.	
O’smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari	2196
Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi	
Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки	2200
Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)	

PEDAGOGIK NIZOLARNI HAL ETISHDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Norjon Jamilova Abduxoliq qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik nizolarni hal etish jarayonida kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari va masalalari yoritiladi. Maqolada pedagoglar faoliyatida nizoli vaziyatlarni boshqarishning psixologik va pedagogik asoslari hamda ta'lim jarayonida muloqot madaniyatini shakllantirishning muhim ahamiyati tahlil qilinadi. Bo'lajak o'qituvchilarda samarali kommunikativ kompetensiya, empatiya, tinglash va murosaga kelish ko'nikmalarini rivojlantirish usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik nizolar, kommunikativ kompetensiya, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik muloqot, konfliktologiya, empatiya, muomala madaniyati, kasbiy kompetensiya.

Abstract: This article highlights the ways and issues of developing the communicative competence of future teachers in the process of resolving pedagogical conflicts. The article examines the psychological and pedagogical foundations of managing conflict situations in teachers' professional activities, as well as the significance of fostering a culture of communication in the educational process. Methods for developing effective communicative competence, empathy, listening skills, and the ability to reach compromise among future teachers are discussed.

Key words: pedagogical conflicts, communicative competence, future teacher, pedagogical communication, conflictology, empathy, communication culture, professional competence.

Аннотация: В данной статье освещаются пути и вопросы развития коммуникативной компетентности будущих учителей в процессе разрешения педагогических конфликтов. Рассматриваются психологические и педагогические основы управления конфликтными ситуациями в профессиональной деятельности педагогов, а также подчёркивается важность формирования культуры общения в образовательном процессе. Проанализированы методы развития эффективной коммуникативной компетентности, эмпатии, навыков слушания и умения идти на компромисс у будущих учителей.

Ключевые слова: педагогические конфликты, коммуникативная компетентность, будущий учитель, педагогическое общение, конфликтология, эмпатия, культура общения, профессиональная компетентность.

KIRISH

Bugungi fan va texnologiya jadal rivojlanayotgan zamonda inson omiliga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsining kasbiy va shaxsiy fazilatlariga alohida diqqat qaratilmoqda. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, maslahatchi va psixolog hamdir. Shu bois o'qituvchi o'z faoliyatida turli xil nizoli holatlarga – o'quvchilar o'rtasida, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida, shuningdek, o'qituvchi va ota-ona yoki hamkasblar orasida yuzaga keladigan vaziyatlarga duch keladi. Zamonaviy ta'lim jarayonida bunday nizoli holatlar tez-tez uchrab, pedagogik muammolar orasida markaziy o'rin egallamoqda. Bunday vaziyatlarda muammoni to'g'ri baholash, muloqotni samarali tashkil etish va nizoni ijobiy yo'l bilan boshqarish ko'nikmasi nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Kommunikativ kompetensiya – bu o'qituvchining pedagogik muloqotni samarali tashkil eta olish, o'z fikrini aniq, lo'nda va odob doirasida ifodalash, o'quvchi hamda jamoa bilan ijobiy psixologik muhit yaratish qobiliyatidir. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatining muhim kafolatidir. Ta'lim jarayonida har bir pedagog muomala madaniyatiga e'tibor qaratishi, salbiy holatlarda ham o'zini tuta bilishi lozim. Kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lgan o'qituvchi dars jarayonini samarali tashkil eta oladi va ta'lim jarayonida yuzaga keladigan nizolarni ham tashqi yordamsiz hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Biroq "guruch kurmaksiz bo'lmagani kabi", pedagoglar orasida muloqotni yetarli darajada samarali tashkil eta olmaydigan, ya'ni kommunikativ



kompetensiyasi yetarli shakllanmagan tajribasiz mutaxassislar ham uchrab turadi. Natijada ta'lim jarayonida pedagogik nizolar yuzaga keladi va bu holat tarbiyaviy jarayon samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kasbiy kompetensiya – bu mutaxassisning o'z kasbida samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuasidir. Pedagoglarda kasbiy kompetensiya qanchalik rivojlangan bo'lsa, ular turli nizoli vaziyatlarga oqilona yechim topa oladi va ularni samarali bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'qituvchi faoliyatida muloqotga kirishish uslubi va nutq madaniyati nizolarning qanday hal etilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, faol tinglash va emotsional nazorat nizoning keskinlashishini oldini oladi, ayrim hollarda esa uni batamom bartaraf etishga xizmat qiladi. Ijobiy fikr bildirish va hurmat bilan gaplashish hamkasb, o'quvchi yoki ota-onaning ishonchi hamda hurmatini oshiradi. Konstruktiv muloqot orqali har ikki tomon manfaatlarini hisobga olgan holda murosaga erishiladi va bahs-munozarasiz masalaga yechim topiladi. Shuningdek, o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasi jamoa ichida ijobiy psixologik iqlim yaratishda muhim rol o'ynaydi, u o'quvchilar o'rtasida o'zaro hurmat, hamjihatlik va hamkorlik muhitini shakllantiradi.

Pedagogik muloqot ta'lim oluvchilarning maqsadlari hamda ularning birgalikdagi faoliyati mazmunidan kelib chiqadigan o'zaro aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish, bir-birini anglash hamda qo'llab-quvvatlashni tashkil etishning ko'p qirrali jarayoni hisoblanadi. Shundan kelib chiqadiki, o'qituvchilar pedagogik muloqot madaniyatiga ega bo'lgan taqdirdagina ularning kasbiy faoliyati jarayonida nizoli holatlar kamayadi. Aks holda esa turli pedagogik nizolar yuzaga kelishi mumkin. Pedagogik nizo – bu ta'lim-tarbiya jarayonida ishtirokchilar o'rtasida qarama-qarshi fikrlar, manfaatlar yoki munosabatlar natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik holatdir. Pedagogik nizolar, odatda, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolar (intizom, baholash yoki tushunmovchiliklar sababli), o'qituvchilar o'rtasidagi nizolar (kasbiy raqobat yoki fikrlar tafovuti tufayli), shuningdek, o'qituvchi va ota-ona o'rtasidagi nizolar (bola tarbiyasi yoki ta'lim natijalari bilan bog'liq masalalarda) ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Pedagoglar faoliyatida turli nizoli holatlar uchrab turishi mumkin. Masalan, o'quvchining darslarni yetarli darajada o'zlashtira olmasligi o'qituvchining hissiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida nizo yuzaga kelishiga sabab bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Yoki o'quvchisining o'zlashtirish darajasi pasayib borayotganini kuzatgan o'qituvchi ota-onaga murojaat qilishni lozim topadi, biroq ularni noqulay vaziyatda, masalan, ko'chada uchratib qolib, muammoni keskin ohangda bayon etishi pedagogik xato hisoblanadi. Chunki bunday vaziyatda ota-onaning psixologik holati, kayfiyati yoki shaxsiy muammolari inobatga olinmaydi va bu o'qituvchi hamda ota-ona o'rtasida nizo kelib chiqishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli o'qituvchi muomala madaniyatiga ega bo'lishi, qachon, qayerda va qanday so'zlash zarurligini aniq bilishi lozim. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ayrim o'qituvchilar orasida kasbiy raqobat mavjud bo'lib, ba'zi pedagoglar o'zini boshqarlardan ustun ko'rsatishga intiladi. Bunday holatlarda majlislarda har bir masalaga o'ylamasdan munosabat bildirish, xalq orasida aytiladigan "Til boshga balo" maqolida ifodalanganidek, ko'pincha nizolarga sabab bo'ladi. Shuning uchun pedagog o'z faoliyati davomida nizo yuzaga kelgan taqdirda uni o'z vaqtida boshqara bilishi va murakkablashib ketishining oldini olishi zarur.

Nizolarni boshqarish deganda ularni paydo bo'lish bosqichida aniqlash, sabablari va oqibatlarini tahlil qilish hamda ijobiy yo'l bilan hal etish tushuniladi. Har bir o'qituvchi nizolarni samarali boshqarish uchun bilim, ko'nikma va shaxsiy komponentlarga ega bo'lishi lozim. Bilim komponenti muloqot psixologiyasi, konfliktologiya va pedagogik etika haqidagi bilimlarni; ko'nikma komponenti tinglash, fikrni aniq ifodalash va muloqotni boshqarish malakalarini; shaxsiy komponent esa empatiya, bag'rikenglik, sabr-toqat va o'zini nazorat qila olish sifatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu kompetensiyalarni bo'lajak o'qituvchilarda shakllantirish ularni nizoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatadi. Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy faoliyatida nizoli holatlar bilan to'qnash kelish ehtimoli yuqori bo'lib, bu, asosan, ularning yetarli amaliy tajribaga ega emasligi bilan izohlanadi. Shu sababli nizolarning oldini olishda bo'lajak o'qituvchilarning psixologik savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur nuqtayi nazardan pedagogik tayyorgarlik jarayonida konfliktologiya fanini o'qitish asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Konfliktologiya – konfliktlarning kelib chiqishi, sabab va oqibatlari, rivojlanishi hamda hal etilish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan bo'lib, u lotincha conflictus – "to'qnashuv" va logiya – "ta'limot" so'zlaridan olingan. Ushbu fan falsafa, sotsiologiya, psixologiya, tarix, huquq, etika, iqtisod va menejment kabi fanlar bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Pedagogik konfliktologiya fanini o'qitishdan maqsad bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik konfliktologiya asoslari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantirishdan iborat. Shu bilan birga, yoshlarga hayotda uchraydigan konfliktlar yuzasidan bilim berish orqali ularni jamiyatda mustaqil va faol fuqaro sifatida shakllantirish, shuningdek, turli ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik munosabatlarda kamtarlik, mehribonlik, halollik, to'g'riso'zlik, samimiylilik va vijdoniylik kabi axloqiy fazilatlarni tarbiyalash ko'zda tutiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur fan yordamida talabalar insonlararo munosabatlarda to'qnashuvlarning sabablarini anglaydi, nizoli vaziyatlarda konstruktiv muloqot yuritish, sabr-toqatli bo'lish, murosaga kelish hamda hissiyotlarni boshqarish ko'nikmalarini egallaydi. Natijada bo'lajak o'qituvchilar kasbiy faoliyat jarayonida nizolarning oldini olish va ularni to'g'ri hal etish malakasiga ega bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu kompetensiyani shakllantirish uchun quyidagi pedagogik sharoitlarning yaratilishi zarur: muloqot psixologiyasi va konfliktologiya fanlarini tizimli o'qitish; amaliy mashg'ulotlar va treninglarni tashkil etish; rolli o'yinlar hamda vaziyatli topshiriqlar orqali real nizoli holatlarni tahlil qilish; o'z-o'zini tahlil qilish va refleksiya ko'nikmalarini shakllantirish; mentorlik va tajriba almashish dasturlari orqali ustozlar tajribasidan samarali foydalanish.

Mazkur yondashuv natijasida bo'lajak o'qituvchi o'z his-tuyg'ularini boshqara oladigan, ijobiy muloqot o'rnatadigan va nizolarga to'g'ri yechim topa oladigan malakali mutaxassis sifatida shakllanadi. Bundan tashqari, bo'lajak o'qituvchilarga pedagogik takt, pedagogik odob, pedagogik adolat, pedagogik obro', pedagogik taktika va pedagogik hamdardlik kabi tushunchalar yuzasidan izchil tushuntirishlar olib borish hamda ularni ongiga singdirish zarur. Pedagogik takt (pedagogik nazokat) pedagogning o'quvchilar bilan turli faoliyat shakllari doirasida tashkil etiladigan muloqot jarayonida axloqiy tamoyillar va xulq-atvor qoidalariga rioya qilishi, ularga to'g'ri va individual yondashish malakalariga egaligini ifodalaydi. Mahoratli pedagog faoliyatida pedagogik takt muhim o'rin egallab, u o'qituvchi faoliyatida pedagogik axloqning g'oyaviy va amaliy jihatdan uyg'unlashgan holda bevosita tatbiq etilish shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik odob pedagog (o'qituvchi) oldiga uning o'ziga, kasbiga, jamiyatga, bolalarga hamda o'quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga munosabatda bo'lishiga nisbatan qo'yiladigan axloqiy talablar tizimidir. Pedagog faoliyatida uning odobi yaqqol namoyon bo'lib, pedagogik odob ta'lim va tarbiya jarayonlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim talab va omillardan biri sanaladi. Pedagogik odobga ega bo'lmagan o'qituvchi faoliyati davomida atrofdagilar bilan sog'lom munosabatlarni yo'lga qo'ya olmaydi, shu bois pedagogik odobga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik adolat muayyan voqea-hodisa, jarayon hamda shaxs xatti-harakatlarini ularning tub mohiyatiga ko'ra haqqoniy baholashni anglatadi bo'lib, u tarixiy shart-sharoitlar va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan belgilanadi. Adolatning axloqiy jihatini insonlararo muomalada teng munosabatda bo'lishni, bir-birining izzat-nafsigaga tegmaslikni hamda axloq-odob qoidalariga rioya etishni taqozo etadi. Shuningdek, pedagogik adolat insoniy qadr-qimmat va uning jamiyat tomonidan tan olinishi, mavjud axloqiy me'yorlar va majburiyatlar o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni ifodalashga xizmat qiladi. Afsuski, ayrim holatlarda pedagoglar o'quvchilarning oilaviy muhiti yoki moliyaviy kelib chiqishiga qarab ularni tabaqalashtirishi kuzatiladi. Bunday pedagoglar boy xonadon farzandlariga nisbatan xushmuomalalik ko'rsatib, boshqa o'quvchilarga esa kayfiyatidan kelib chiqqan holda munosabat bildiradi, hatto ularning bilim darajasini ham moliyaviy sharoitiga qarab baholaydi. Bu kabi holatlar pedagogik faoliyatda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilar ongida pedagogik adolat tushunchasini shakllantirish va mustahkamlash muhim vazifa hisoblanadi. Pedagogik obro' pedagogning o'quvchilar, ularning ota-onalari, pedagogik jamoa hamda jamiyat tomonidan e'tirof etilgan axloqiy maqomidir. Pedagog o'zi tomonidan qozonilgan obro'ga tayangan holda o'quvchilarning xulq-atvorini boshqaradi va ularning ishonchini qozonadi. Pedagogik obro' pedagogning ma'naviy-axloqiy hamda pedagogik-psixologik tayyorgarligini ham ifodalaydi. Pedagog ega bo'lgan obro' darajasi uning chuqur bilimi, zakovati, kasbiy mahorati va o'z ishiga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'qituvchi bilimli, zakovatli va harakatchan bo'lsa, hamkasblari orasida o'z obro'siga ega bo'ladi. Lekin bundan tashqari, u o'quvchilar va ota-onalar bilan munosabatda ham hurmatga sazovor bo'lsa, yanada yuksak obro' qozonadi. Negaki ota-onalar va o'quvchilar bilan til topisha olgan pedagogning har qanday ishi muvaffaqiyat sari rivojlanadi.

Pedagogik taktika – o'qituvchining o'quvchilar, ota-onalar, vasiylar va hamkasblar bilan bo'ladigan pedagogik munosabatlari jarayonida ko'zlangan maqsadga erishish uchun muayyan sharoitga mos yo'l, shakl, metod va vositalarni tanlash hamda qo'llash tizimidir. Har bir pedagog faoliyati davomida bir nechta maqsadlarni belgilaydi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun turli rejalar tuzadi va ularni samarali amalga oshirishga intiladi. Buning asosiy sababi pedagogning yetarli darajada pedagogik taktika va mahoratga ega ekanligidir. Agar pedagogik taktika yetarli bo'lmaganida, hatto maqsad qo'yish jarayonida ham jiddiy qiyinchiliklarga duch kelinar edi.



Pedagogik hamdardlik (pedagogik empatiya) – bu:

- pedagog tomonidan ta'lim jarayoni ishtirokchilari, ya'ni o'quvchilar, talabalar, tarbiyalanuvchilar, ota-onalar va hamkasblarning xatti-harakatlari, hissiyotlari, hayotiy intilishlari va shaxsiy xususiyatlarini tushunish; boshqalar nuqtai nazarini qabul qilish asosida jamoada munosabatlarni me'yorida tashkil etish;
- o'zgalarning ichki holatini, o'y-fikrlarini va his-tuyg'ularini anglay olish;
- boshqalarning boshiga tushgan kulfat va sinovlardan qayg'urish;
- rollarni qabul qilish, ya'ni og'ir vaziyatga tushgan insonlarning o'rniga o'zini tasavvur va mushohada orqali qo'yib ko'rish hamda ulardagi ijobiy his-tuyg'ularni tiklashga ko'maklashish jarayonidir.

Bu orqali pedagog o'quvchi shaxsini, uning ehtiyoj va istaklarini chuqur anglaydi hamda o'quvchilarga samarali pedagogik ta'sir ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi.

Pedagogning har qanday muammoni hal eta olishiga yordam beradigan, faoliyati davomida barchaning hurmatiga sazovor bo'lishiga, hatto juda sho'x o'quvchining qalbidan joy olishiga imkon beradigan muhim omil – uning pedagogik hamdardlik (empatiya) qobiliyatiga ega bo'lishidir. Tahlil shuni ko'rsatdiki, ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik nizolarni hal etish jarayonida kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari atroflicha o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, pedagogik nizolarni samarali boshqarish uchun o'qituvchilarda empatiya, faol tinglash qobiliyati, muloqot madaniyati hamda murosaga kelish ko'nikmalari muhim ahamiyatga ega.

Natijalar – tahlil asosida quyidagi xulosalar aniqlandi:

- a) bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik nizolarni hal qilishga tayyorlashda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muhim hisoblanadi;
- b) empatiya va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik nizolarni samarali boshqarishga yordam beradi hamda nizolarning kelib chiqishining oldini oladi;
- d) muloqot madaniyati va konfliktologiya bo'yicha bilimlar pedagoglarning nizoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini kuchaytiradi;
- e) amaliy mashg'ulotlar va simulyatsion vaziyatlar orqali mazkur ko'nikmalarni rivojlantirish tavsiya etiladi.

Shuningdek, pedagoglarning muloqot madaniyati va konfliktologiya asoslarini chuqur bilishi nizoli vaziyatlarni boshqarishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bo'lajak o'qituvchilarning amaliy mashg'ulotlar hamda rolli o'yinlar orqali ushbu ko'nikmalarni mustahkamlashi samarali natija beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Darhaqiqat, pedagogik nizolar ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lsa-da, ularni to'g'ri boshqarish o'qituvchining kasbiy mahoratini namoyon etadi. Bo'lajak o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasi faqat muloqot ko'nikmasi emas, balki insoniy fazilatlar, psixologik barqarorlik va ijtimoiy moslashuvchanlikni o'z ichiga olgan kasbiy sifatdir. Shu sababli pedagogik oliy ta'lim muassasalarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli yondashuv zarur. Chunki bu nafaqat nizolarning oldini olishga, balki o'quvchi shaxsini har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan sog'lom pedagogik muhitni yaratishga xizmat qiladi. Bo'lajak o'qituvchilar faoliyatida pedagogik nizolarning oldini olish uchun ishga qabul qilish jarayonida ular bilan empatiya, tinglash ko'nikmalari, muloqot madaniyati, pedagogik takt, pedagogik adolat, pedagogik obro' va pedagogik odob kabi tushunchalar yuzasidan suhbat olib borish hamda ularning fikrini aniqlash lozim. Ushbu tushunchalarga mos psixologik testlardan foydalanish o'qituvchining murakkab vaziyatlarda qanday choralar qo'llashini aniqlashga yordam beradi hamda pedagogning ishga layoqatlilikini yaqqol namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Moliya, 2003.
2. Djumaeva S. Ijtimoiy va pedagogik nizolar: ularning mohiyati va bartaraf etish yo'llari / Metodik qo'llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2011.
3. Erkaboyeva N. Pedagogik mahorat (o'quv qo'llanma). – Toshkent, 2020.
4. Holiqov A. Pedagogik mahorat / O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2010.
5. Husanov B., G'ulomov V. Muomala madaniyati / Darslik. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2009.
6. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
7. Muhiddinov A.G. O'quv jarayonida nutq faoliyati. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
8. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari / Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: "O'qituvchi", 1993.
9. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat / O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
10. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: "Sano-standart", 2017.
11. Rustamova N. (2021). Pedagogik jamoadagi nizoli vaziyatlar va ularni bartaraf etish usullari. Scientific Journal of Education. [online]. Available at: <https://scientific-jl.com>
12. Tursunov A. (2019). Pedagogik muloqotda konfliktlarni boshqarish. Scientific Journal of Education. [online]. Available at: <https://scientific-jl.org>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.